

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA MADANIY KONSEPTLARNING LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI

Samadova Sarvinoz Solik qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti 4 kurs talabasi
sarvinozsamadova1104@gmail.com

Ilmiy rahbar: Inomova Durdona Ulug'bek qizi
Shahrisabz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi
inomovadurdona9808@gmail.com

Annotatsiya. Bu maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi madaniy konseptlarning lingvokulturologik xususiyatlari ko'rib chiqilgan. Unda millatlarning milliy dunyoqarashlarini aks ettiruvchi tushunchalarning tildagi roli, semantik ko'lami va madaniy mazmuni tahlil qilinadi. Ikki xil tizimli tillarda bunday konseptlarning qiyosiy jihatdan tahlili ularning etnomadaniy o'ziga xosligi va kognitiv tuzilmasini inobatga olgan ravishda amalga oshiriladi. Ishda madaniy konseptlarning lisoniy ifodalanishidagi umumiy va farqli jihatlarni tahlil qilish orqali har bir tilning o'ziga xos madaniy kodi yoritib berilgan.

Kalit so'zlar. *Lingvokulturologiya, madaniy, konsept, milliy xususiyat, qadriyat.*

LINGUOCULTURAL ANALYSIS OF CULTURAL CONCEPTS IN THE ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Samadova Sarvinoz Solik qizi

4th-year student of Shakhrisabz state pedagogical institute
Scientific Supervisor: Inomova Durdona Ulug'bek qizi
Teacher of Shakhrisabz State Pedagogical Institute
inomovadurdona9808@gmail.com

Abstract. *The linguocultural traits of cultural conceptions in Uzbek and English are examined in this article. It examines the function, semantic range, and cultural content of ideas that represent various peoples' national worldviews within language. Considering their ethnocultural distinctiveness and cognitive structure, a comparative study of these concepts in two structurally distinct languages is conducted. By examining the similarities and differences in the verbal expression of cultural notions, the study emphasizes the specific cultural code of each language.*

Keywords. *Linguoculturology, cultural concept, national characteristics, value.*

Til jamiyatning ham ijtimoiy ham madaniy rivojlanishini ifoda ettirib beruvchi muhim vosita sanaladi. Har bir til o'ziga xos madaniy konseptlarni aks ettiradi va ular orqali xalqning dunyoqarashi hamda qadriyatlarini namoyon etadi. Ingliz va o'zbek tillarida madaniy konseptlar turli lingvistik vositalar orqali shakllanadi va ifoda qilinadi.

Mazkur tadqiqotda ikkala tildagi madaniy konseptlarning lingvokulturologik xususiyatlari tahlilga olinadi, ularning semantik va morfologik xususiyatlari solishtiriladi hamda funksional ahamiyati aniqlanadi.

Madaniy konseptlarning lingvistik ifodasi. Ingliz tilida madaniy konseptlar ko'pincha analitik vositalar orqali ifodalanadi. Masalan, freedom, privacy, individualism kabi tushunchalar jamiyatning individualistik xarakterini aks ettiradi. Bu tushunchalar ko'pincha so'z birikmalari, frazeologizmlar va yangi so'zlar orqali kengaytiriladi.

O'zbek tilida esa madaniy konseptlar ko'proq milliy qadriyatlar bilan bog'liq bo'lib, sintetik shakllar orqali ifodalanadi. Masalan, mehmondo'stlik, or-nomus, kattalarga hurmat kabi tushunchalar jamiyatning kollektivistik va an'anaviy xususiyatlarini ko'rsatadi. Bu konseptlar affiksatsiya va so'z yasash orqali kengayadi.

Semantik xususiyatlar. Madaniy konseptlar vaqt o'tishi bilan o'zgarib, yangi ma'nolar kasb etadi. Ingliz tilida, masalan, networking tushunchasi nafaqat texnologik, balki ijtimoiy aloqalarni ham anglatadi. O'zbek tilida esa mahalla tushunchasi oddiy hududiy birlikdan tashqari ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimini ham ifodalaydi. Madaniy konseptlarning tasnifi. Ularni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

Ijtimoiy konseptlar (freedom, mahalla)

Axloqiy konseptlar (honesty, or-nomus)

Milliy-an'anaviy konseptlar (tradition, mehmondo'stlik)

Zamonaviy konseptlar (digital culture, ijtimoiy tarmoqlar)

Funksional ahamiyati. Madaniy konseptlar til orqali jamiyat qadriyatlarini yetkazadi, milliy o'zlikni shakllantiradi va avlodan-avlodga o'tishini ta'minlaydi. Ingliz tilida globalizatsiya ta'siri kuchli bo'lsa, o'zbek tilida milliylik va an'anaviylik ustunlik qiladi. Madaniy konseptlar til tizimida shunchaki so'z emas, balki "madaniy kod" vazifasini bajaradi. Ingliz tili global miqyosda konseptlarni standartlashtirishga (masalan, success — muvaffaqiyat tushunchasining moddiy farovonlik bilan bog'lanishi) intilsa, o'zbek tilida konseptlar ko'proq ma'naviy-axloqiy (masalan, duo olish, savob) yo'nalishni saqlab qoladi. Ushbu birliklar til orqali xalqning hayotiy tajribasini va qadriyatlar tizimini keyingi avlodga "tayyor qoliplar" (maqollar, matallar) ko'rinishida uzatadi.

Xulosa qilib aytganda, Ingliz va o'zbek tillaridagi madaniy konseptlar ularning lingvistik tizimi va madaniy muhitiga bog'liq holda shakllanadi. Ingliz tilida analitiklik va individuallik, o'zbek tilida esa sintetiklik va kollektivlik ustunlik qiladi. Madaniy konseptlarni o'rganish til va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni chuqurroq anglash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mahmudov, N. Tilning kognitiv tadqiqi va tildagi olam manzarasi. — "O‘zbek tili va adabiyoti" jurnali, 2006.
2. Ashurova, D. U., Galieva, M. R. Cognitive Linguistics. — Tashkent: Vneshinvestprom, 2018.
3. Wierzbicka, A. Semantics, Culture, and Cognition: Universal Human Concepts in Culture-Specific Configurations. — Oxford University Press, 1992.
4. Ashurova, D. U., Galieva, M. R. Cognitive Linguistics. — Tashkent: Vneshinvestprom, 2018.
5. Longman Dictionary of English Language and Culture. — Pearson Education, 2005.

